

ROALD DAHL

CHARLI VA SHOKOLAD FABRIKASI

Ikkinchi nashr



Toshkent
«EXTREMUM PRESS»
2018


CHARLI HAQIDA

Ushbu keksa odamlar janob Bakketning ota-onasi.


Ularning ismlari Jo bobo va Jozefina buvi.



Bu suratda ko'rib turganlaringiz esa Bakket xonimning ota-onasi. Ularning ismlari Jorj bobo va Jorjina buvi.



Bular esa janob Bakket va uning rafiqasi Bakket xonim.



Ularning Charli ismli kichkintoy o'g'ilchalari bor. Suratda ko'rib turganingiz Charli siz bilan tanishganidan xursandligini bildirmoqda.

Butun oila – oltita qariya va bolakay Charli katta shaharcha markazidagi ko'rimsizgina yog'ochli uyda birgalikda yashashadi.

Uy shuncha odamning yashashi uchun yetarli kattalikda emasdi. Bu yerda hammasi bo'lib faqat ikkita xona va bitta karavot bor, xolos. Karavot to'rt qariyalar – bobo va buvilarga berilgandi. Chunki ular juda keksa va holsiz edilar. Holsizliklari



shunchalik ediki, hech qachon tashqariga chiqmasdilar. Jo bobo va Jozefina buvi bir tarafda, Jorj bobo va Jorjina buvi boshqa tarafda yashardilar. Janob Bakket va rafiqasi hamda kichkintoy Charli boshqa xonada, pol ustida to'shakda uxlardilar.

Yoz paytlarida bu holat unchalik yomon emasdi, ammo qishdagi muzlatadigan sovuq havo pol bo'ylab esib turganda tun judayam uzun va dahshatli tuyulardi.

Bu oilaning hech qachon boshqa yaxshiroq uy yoki karavot sotib olish niyati bo'lmagan. Chunki ularning kambag'alligi buni o'ylashga ham yo'l qo'ymasdi. Janob Bakket oilada pul topib keluvchi yagona odam edi. U tish pastasi ishlab chiqaradigan korxonada ishlardi. Kun bo'yi stanok oldida ishlar, to'lgan tish pastasi quvurlari og'zini mahkamlardi. Ammo tish pastasi qopqoqlarini yopuvchi ustaga hech qachon ko'p haq to'lanmagan. Biroq bechora Bakket doimo og'ir mehnatga chidar edi. U qopqoqlarini qanchalik tez yopsa-da katta oila uchun zarur bo'lgan narsalarning yarmiga yetadigan pul ham topolmasdi.

Shuning uchun hammalariga zarur oziq-ovqatlarni sotib olishga qurblari yetmas edi. Ularning ayrim ovqatlargagina puli yetardi: nonushtaga – non va margarin; qaynatilgan kartoshka va karam – tushlikka; karamsho'ruva – kechki ovqat uchun. Yakshanba kuni biroz boshqacha. Ular shu kunni kutib yashardilar. Chunki yakshanbada o'sha ovqatlarni ikki martadan yeyishga ruxsat berilardi.

Albatta, Bakketlar hech qachon och qolmasdilar. Ammo hammalari: ikki bobo, ikki buvi, Charlining ota-onasi va ayniqsa, kichkintoy Charli ertalabdan kechgacha oshqozonlaridagi dahshatli bo'shliqni sezib turardilar.

Ayniqsa, kichkintoy Charli o'zini hammadan ham yomon his qilardi. Charlining ota-onasi o'g'illariga o'z ulushlaridan berib turishlariga qaramasdan bu o'sib borayotgan bola uchun yetarli emasdi. U karam sho'rvadan ko'ra ko'proq mazaliroq va qorinni to'ydiradigan taomlarni yeyishni xohlardi. Hammasidan ham ko'proq yeyishni xohlaydigan narsasi SHOKOLAD edi.

Ertalab Charli maktabga ketayotib do'kon oynasidan peshtaxtalarni to'ldirib turgan shokoladlarni ko'rardi. U oynaga tikilib qarar va qayta-qayta hidlab olardi. Kun bo'yi ko'plab bolalarning cho'ntaklaridan shokoladlarni olib, ochko'zlarcha yeyishlarini kuzatardi. Albatta bu Charli uchun haqiqiy azob edi.

Charli faqatgina yiliga bir marta, tug'ilgan kunda shokolad mazasini tatib ko'rish baxtiga muyassar bo'lardi. Butun oila yil bo'yi to'plagan pullarini yig'ib, qutlug' kun kelganda, Charliga kichkinagina shokolad sovg'a qilishardi. Har yili o'sha ajoyib kun kelganda Charli erta tongda o'zining kichik yog'och qutisidan oltin xazinasini oladi. Bir necha kun o'tgach, Charli o'ziga o'zi unga qarashga ruxsat beradi. Ammo hech qachon ushlab ko'rmaydi. Biroz

keyinroq faqatgina shokolad qog'ozining bir chetini ushlab ko'radi. So'ngra sevimli shokoladdan biroz tatib ko'rishga ruxsat beradi. Keyin yana ozgina bo'lak olib yeydi, yana shunday... yana shunday... Va shu yo'l bilan Charli tug'ilgan kuni nishonlangandan keyingi bir necha oy davomida shokolad tatib ko'rish imkoniga ega bo'ladi.

Biroq men hali sizga eng qizig'ini aytganim yo'q. Charli uchun eng xavfli narsa har kuni shokolad do'konini ko'rish ham, boshqa bolalarning shokolad yeyishlariga guvoh bo'lish ham emasdi. Eng yomoni: ular yashayotgan shaharchada, Charlining uyi ro'parasida **ULKAN SHOKOLAD FABRIKASI** bor edi.

Qani bir tasavvur qilib ko'ring-a!

Bu ulkan shokolad fabrikasi oddiy va odatdagidek emasdi. U judayam katta va butun dunyoga mashhur fabrika edi. Fabrika bu yerda tayyorlanadigan har bir shokoladning buyuk ixtirochisi **VILLI VONKA** nomi bilan atalardi. Bu judayam ajoyib va g'oyat ulkan joy edi. Fabrikaga katta temir darvozadan kirilardi. Atrof baland devorlar bilan o'ralgan. Ajab-tovur mo'rilardan shirin tutun taraladi va eritilgan shokoladning yoqimli hidi yarim mil masofagacha yetib boradi. Ichkaridan g'ayrioddiy guvillagan ovozlari eshitiladi. Havo bilan erigan shokoladning hidi dimoqqa uriladi.

Kuniga ikki marta: maktabga ketish va qaytishda Charli fabrikaning darvozalari qarshisidan o'tar

hamda judayam sekin yurishga harakat qilardi. Chunki u qanchalik sekin yursa, shokoladning xushboʻy isini shunchalik koʻp hidlardi.

Kichkintoy uchun qanchalik yoqimli edi bu hid!

U fabrikaning ichiga kirishni va yoqtirgan narsalarini oʻz koʻzi bilan koʻrishni xohlardi. Kechki payt, karamshoʻrva ichib boʻlingandan soʻng, Charli doimo bobo-buvilarining yoniga kirib, ularning hikoyalarini eshitardi. Keyin ularga xayrli tun tilardi.

Keksa odamlarning hammasi toʻqson yoshdagidek koʻrinadi. Ularning yuzi quritilgan olxoʻriga oʻxshar, suyaklari skeletga oʻxshab koʻrinardi. Qariyalar kun boʻyi karavotda mudrab oʻtirishdan boshqa hech narsa qilmasdilar. Ammo eshik ochilganini darhol eshitardilar. Charlining “Xayrli kech! Bobojonlarim, buvijonlarim!” degan ovozidan barchalari jonlanib turib ketishardi. Burushib ketgan yuzlariga yoqimli tabassum yugurar va gapirishni boshlardilar. Hammalari kichkintoy Charlini judayam suyushardi. U qariyalarning qorongʻu hayotidagi yagona yorugʻlik edi. Keksalari bu kechki tashrifni kun boʻyi orziqib kutardilar. Bunday paytlarda ularning koʻrimsiz uyi baxtli maskanga aylanar va butun oila ochlik va kambagʻallikni biroz unutardi.

JANOB VILLI VONKANING FABRIKASI

Charli bir kuni kechki payt xonaga kirib, bobolaridan so‘radi:

– Rostdan ham Vonkaning shokolad fabrikasi dunyodagi eng katta fabrikami?

– Rost, – deb yuborishdi ular barobar. – Albatta, rost!

– Janob Villi Vonka dunyodagi eng zo‘r shokolad tayyorlovchimi?

– Mening shirin bolajonim, – dedi Jo bobo, boshini yostiqdan sal ko‘tarib. – Villi Vonka dunyoda hali hech kim ko‘rmagan, eng ajoyib, ishonish qiyin bo‘lgan, g‘ayrioddiy shokoladlarni tayyorlaydi. Menimcha, buni hamma biladi.

– Men ham bilaman, u juda mashhur, – dedi Jorj bobo. – Bundan ham ortiqroq ta‘rifga loyiq. U shokolad olamining sehgari. U nimani xohlasa o‘shani tayyorlay oladi. Bu dalil emasmi?

Qolgan uch qariya ham bosh iring‘ab hammasi to‘g‘riligini tasdiqlashdi.

Jo bobo: “Men senga biror marta ham Villi Vonka va uning fabrikasi haqida aytib bermaganmanmi?” – deb qoldi.

– Hech qachon, – javob berdi Charli. – Iltimos, bu haqda menga hozir aytib bering, bobojon.

– Unday bo‘lsa menga yaqinroq o‘tir, bo‘talog‘im va yaxshilab eshit!

Jo qariyalarning eng kattasi edi. U to‘qson yoshlardan o‘tgan, hamma qari odamlarga o‘xshab ozg‘in va nimjon edi. Ozgina so‘zlashga madori yetardi, xolos.

– Oh, qanday odam ekan-a, bu Villi Vonka!
– hayajon bilan gapirdi Jo bobo. – Sen birorta shokolad fabrikasi dunyodagi eng diqqatga sazovor bo‘lgan yuzdan ortiq ajoyib turini tayyorlaganini eshitganmisan?

– Yuz foiz to‘g‘ri! – dedi Jozefina buvi. – Uning shokoladlari dunyoning to‘rt burchagiga jo‘natiladi. Shunday emasmi, Jo bobosi?

– Xuddi shunday. Dunyoning barcha qirol va prezidentlariga ham shokoladlar jo‘natiladi. Uning barcha ixtirolari yengida, degan gap ham bor. Sen uning muzlatgichda turmasa ham soatlab erimaydigan shokoladli muzqaymoq tayyorlaganini, hatto issiq kunlarda kun bo‘yi quyosh nurlarida tursa ham erimaydigan turini tayyorlagani haqida eshitganmisan?

– Bo‘lishi mumkin emas, – dedi kichkintoy Charli, bobosiga hayrat bilan tikilib.

– Albatta bo‘lishi mumkin emas, – dedi Jo bobo.
– Bu haqiqiy bema’nilik, ammo buni Villi Vonka uddalay oldi.

– To‘g‘ri, – deb tasdiqlashdi boshqalar boshlarini qimirlatib. – Villi Vonka buni uddalay oldi.

Jo bobo xuddi so‘zlarini Charli tushunmay qoladigandek, sekin ovozda davom etdi: – Villi Vonka binafsha ta‘mini tekshirib ko‘rdi va karamelga boy,

har o'n daqiqada o'zgaradigan, siz ularni birpasda so'radigan, kichkina, parday yengil shirinliklarni, labingizga tekkizishingiz bilan bir zumda yoqimli ta'm beradigan ajabtovur shirinliklarni, ta'mi hech qachon yo'qolmaydigan saqichlarni tayyorladi. U qanddan shunaqa pufaklar tayyorladiki, ularni puflasang kattalashadi. Maxfiy bir usul bilan qora nuqtalar qo'yilgan, yoqimtoy ko'k qushlarning tuxumlaridan shunday shirinlik tayyorladiki, ularni og'zingizga solganingizda asta-sekinlik bilan kichrayib boradi va to'satdan tilingizning uchida kichkinagina pushti shakarli tuxumdan boshqa hech narsa qolmaydi.

Jo bobo gapidan to'xtadi va tili bilan lablarini asta yaladi. – Bularni gapirganimdan keyin hatto meni ham shokolad yegim kelib ketadi, – dedi u.

– Mening ham, – dedi kichkintoy Charli. – Iltimos, davom eting!

Suhbatni Charlining ota-onasi ichkari xonada tinchgina eshitib o'tirardilar.

– Unga ahmoq Hind qiroli haqida gapirib bering, – dedi Jozefina buvi. – U buni tinglashni xohlaska kerak.

– Sen qiroli Pondicherrini nazarda tutyapsanmi?
– Jo boboning yuziga tabassum yugurdi.

– Haqiqiy ahmoq, – dedi Jo bobo.

– Ammo juda boy, – qo'shib qo'ydi Jozefina buvi.

– U nima qilgan? – so'radi Charli.

– Eshit, men senga aytib beraman, – davom etdi Jo bobo.

JANOB VONKA VA HIND QIROLI

Qirol Pondicherri Villi Vonkaga xat yozadi.
Undan

Hind mamlakatiga borishini va butunlay shokoladdan iborat hashamatli saroy qurib berishini soʻraydi.

– Janob Villi Vonka buni bajardimi, bobo?

– Ha, haqiqatan shunday qildi. Bu qanday qasr boʻldi de? U yerda yuzta xona va hamma narsa qora yoki oq shokoladdan tayyorlandi. Hatto gʻishtlar va ularni birlashtirib turuvchi sementlar ham shokoladdan edi. Devorlar, shiftlar, gilamlar, suratlar, uy jihozlari, karavotlar ham shokoladdan. Hattoki, hammomdagi dushdan ham issiq shokolad tushardi.

Ishni tugatgandan soʻng janob Vonka qirol Pondicherrini ogohlantirdi: – Bu qasr uzoq tura olmaydi, shuning uchun qasrni oz-ozdan yeyishni boshlashingiz mumkin.

– Bekorchi gap! – baqirdi qirol. – Men qasrimni yemoqchi emasman, hatto zinapoyani bir yalab koʻrishni, devorlarni ham yeb koʻrishni xohlamayman. Men bu qasrda yashamoqchiman!

Ammo janob Villi Vonka mutlaq haq edi. Albatta, tezda issiq quyoshli kunlar kelganda butun saroy eriy boshladi va keyin sekingina yer yuzasiga yiqildi. Bu paytda ahmoq qirol shokoladli xonasida

mudrab yotardi, uygʻonganida, oʻzini choʻmilish maydonida – katta jigarrang yopishqoq shokoladli koʻlda koʻrdi.

Kichkintoy Charli haliyam karavotning oʻrtasida bobosiga tikilib oʻtirardi. Charlining yuzi yorugʻ edi. Koʻz qorachilari kengayib, atrofga qiziqish bilan qarardi. – Bu rostdanam boʻlganmi? – soʻradi Charli. –Yo qulogʻimga lagʻmon ilyapsizmi?

– Rostdan toʻgʻri, – deb yuborishdi barchalari. – Albatta toʻgʻri. Hamma senga oʻxshab ishonqiramay soʻraydi-ya!

– Men senga boshqa voqealarni ham ayta-man, –dedi Jo bobo, Charluga yaqinroq kelib, xuddi soʻzlarini tushunmay qoladigandek dona-dona qilib sirli pichirladi: – Hech kim... hech qachon tashqariga chiqmagan.

– Qayerdan tashqariga?

– Va ... hech kim... hech qachon... ichkariga ... kirmagan.

– Ichkari qayer? – baqirib yubordi Charli.

– Vonkaning fabrikasi-da, albatta.

– Bobo, siz nimani nazarda tutyapsiz?

– Ishchilarni, Charli.

– Ishchilarni?

– Hamma fabrikalarda ishchilar qatorlashib ertalab va kechqurun darvozalardan kirib chiqishadi. Ammo Vonkaning fabrikasi bundan mustasno. Sizlar hech qachon fabrikaga biror kishi kirganini yoki chiqqanini koʻrganmisiz?

Kichkintoy Charli sekingina to‘rt keksa qariyaning yuzlariga qaradi, ular esa Charliga. Ularning yuzlarida samimiy tabassum bor edi, ammo jiddiy ham edilar. Ularda hazildan alomat ham yo‘q edi.

– Yaxshi, sen-chi? – so‘radi Jo bobo.

– Men... men chindanam bilmayman, bobo, – dedi Charli duduqlanib. – Men fabrika yonidan o‘tayotganimda eshiklar qulflangandek ko‘rinadi.

– Aynan shunaqa, – dedi Jo bobo.

– Ammo bu yerda odamlar ishlashi shart.

– Odamlar yo‘q, Charli. Odatdagidek odamlar yo‘q u yerda.

– Unda ular kimlar? – so‘radi Charli.

– Eh-hey! Vonkaning uddaburonligini ko‘r!

– Charli, asalim! – eshik oldida turgan holda Bakket xonim o‘g‘lini chaqirdi. – Bugunga yetarli, uxlash vaqting keldi.

– Oyijon, mening eshitgim kelyapti.

– Ertaga eshitasan, shirintoyim.

– Boraqol, – dedi Jo bobo. – Men senga qolganini ertaga aytib beraman.

SIRLI ISHCHILAR

Ertasi kuni kechqurun Jo bobo hikoyasini davom ettirdi:

– Bundan bir necha yil oldin Villi Vonkaning fabrikasida minglab odamlar xizmat qilishgan. Bir kuni to‘satdan Vonka ularning hammasiga ruxsat

berdi va hech qachon bu yerga kelmasliklarini aytdi.

– Nima uchun? – so‘radi Charli.

– Chunki ular josuslar edi.

– Josuslar?!

– Ha. Boshqa shokolad tayyorlovchilar Villi Vonka tayyorlagan ajoyib shokoladlarga hasad qilib, uning maxfiy retseptlarini o‘g‘irlash uchun josuslarni jo‘natdi. Josuslar Vonkaning fabrikasiga ishga kirishdi va mug‘ambirlik bilan o‘zlarini oddiy ishchilardek ko‘rsata boshlashdi. Ularning har biri albatta maxsus tayyorlangan narsalarni topishdi.

– O‘sha fabrikalariga qaytib bu haqda aytishdimi, bobo? – ajablandi Charli.

– Ular shunday qilishlari shart edi. Birozdan so‘ng Fikkelgruberning fabrikasi hech qachon, hattoki eng issiq kunlarda ham erimaydigan muzqaymoqlarni ishlab chiqara boshladi. Keyinchalik Prodnessining kompaniyasi ta‘mi hech qachon yo‘qolmaydigan saqichlarni tayyorladi.

Janob Slugvorzning fabrikasi qandli havo sharlarini – ajoyib shirin pufaklarni tayyorladi. Shunday qilib xuddi Vonkaning ixtirolaridek mahsulotlar boshqa fabrikalar tomonidan ishlab chiqarilaverildi. Villi Vonka yoqasini yirtgudek bo‘lib baqirdi:

– Bu dahshat. Ular meni xonavayron qilishadi. Hamma yerda josuslar. Men fabrikani yopishga majburman.

– Ammo u bunday qilmadi-ku?

– Yo‘q, u shunday qildi, – gapida davom etdi Jo bobo. – U hamma ishchilardan uzr so‘radi va ularni uyiga jo‘natdi. Keyin u asosiy darvozalarni berkitdi va ularni zanjir bilan mahkamlab tashladi. Vonkaning ajabtovur, sershovqin fabrikasi to‘satdan kimsasiz bo‘lib qoldi. Mo‘rilardan shirin tutun taralmay qo‘ydi, mashinalar dirillashdan to‘xtadi, birorta shokolad ham, qand ham ishlab chiqarilmay qo‘ydi. Birorta jonzot ichkariga kirmadi ham, chiqmadi ham. Villi Vonka esa dom-daraksiz yo‘qolgan edi. Oradan bir qancha oylar o‘tdi . Ammo fabrika yopiqligicha turaverdi. Hamma gapirardi: – Bechora, Villi Vonka! U ajoyib inson edi. Dunyodagi eng ajoyib narsalarini ham u tayyorlagan edi. Ammo hozir hammasi tamom.

Keyin hammani lol qoldirgan bir voqea ro‘y berdi. Bir kuni erta tongda fabrikaning uzun mo‘rilaridan yupqalashib tutun chiqa boshladi. Butun shaharchadagi odamlar to‘xtab, tikilib qarashdi. Fabrikada kimdir pechni yoqqan edi. Odamlar fabrika ishga tushdi deb o‘ylashdi. Ichkarida kimdir bor, Villi Vonka qaytib keldi degan fikrga kelishgandi. Ammo bunday emasdi. Ulkan darvozalar haliyam qulflab zanjirlangan, juda mustahkam edi. Ammo: “Fabrika ishlayapti, – baqirishdi odamlar. – Mashinalarning ovozi eshiting. Ularning hammasi yana dirillayapti, havoda yana erigan shokoladning yoqimli hidi dimog‘ingizga uriladi”.

Jo bobo yostiqa suyandi va suyaklari chiqqan uzun barmoqlarini Charlining tizzasiga qo'yib, muloyim ovozda gapirdi:

– Sirlar judayam ko'p, Charli, fabrikaning dera-zalarida kichkina qora soyalar ko'rinadi.

– Kimning soyalari? –so'radi Charli.

– Aynan shuni hamma bilishni xohlaydi-da!

– Bu joy ishchilarga to'la, –baqirishdi odamlar.

– Ammo hech kim ichkariga kirmagan, chiqmagan ham. Darvozalar berkitilgan. Bu chinakam ahmoqlikka o'xshab ko'rinadi-ya!

Fabrika keyingi o'n yilda judayam rivojlanib ketdi. Hamma vaqtlardagidan ham mazaliroq, misli ko'rilmagan shokolad va qandlar ishlab chiqarildi. Shuningdek, hozir janob Fikkelgriber va janob Prodnessi, Slugvorz ko'chirgan retseptlar o'rniga yangi va ajoyib qandlarni ixtiro qildi. Josuslar fabrika ichkarisiga kiritilmadi.

– Ammo, bobojon, Vonkaning fabrikasidagi ish-lariga kim yordam beradi?

– Mening shirin bolajonim, bu shokolad ishlab chiqaruvchilar olamining eng katta siri, – javob berdi bobo o'ychan tarzda. – Biz ular haqida faqat bir narsani bilamiz. Ular judayam kichkina va noaniq. Gohida oynalar ortida ko'rinadi, ayniqsa, tunda chiroqlar yonganda mening tizzamdan baland bo'lmagan kichkina odamlarning soyasi ko'rinadi.

– Demak, ular biz kabi odamlar emas ekan-da?
– dedi Charli.

Shunda Charlining otasi janob Bakket xonaga kirdi. U endigina tish pastasi fabrikasidan kelgan va qo'lida kechqurungi xabarlar bosiladigan gazetani silkitdi. Xonadagilar katta harflarda yozilgan sarlavhani bemalol o'qidilar.

VONKANING FABRIKASI BESH OMADLI BOLALAR UCHUN OCHILADI!

Oltin biletlar

Sen Vonkaning fabrikasiga kirish uchun ruxsat berildi demoqchimisiz? Unda nima yozilganini tezroq o'qib ber-chi?

Gazetada shunday yozilgan, eshiting.

Kechqurungi e'lon

O'n yildan beri hech kim ko'rmagan, shokolad tayyorlovchi buyuk daho, nodir iste'dod egasi janob Villi Vonka quyidagilarni ma'lum qildi: "Men, Villi Vonka besh bolaga fabrikamga kirishga ruxsat berishiga qaror qildim, faqatgina beshta, undan ko'p emas. Ular ushbu yil mening fabrikamga kirishadi. Besh omadli bola men bilan shaxsan uchrashadi, men ularga fabrikamdagi barcha sehrli va maxfiy narsalarni ko'rishlariga ruxsat beraman. Keyin, sayohatning oxirida, ularga maxsus sovg'a: umrlarining oxirigacha yetadigan shirinlik va shokoladlar hadya qilaman.

Siz oltin biletga e'tiborli bo'ling! Oltin qog'ozlardan nashr qilingan va odatdagidek qadoqlangan beshta shirinlik orasiga beshta oltin bilet yashiringan. Bu biletlar dunyoning xohlagan mamlakatidagi xohlagan shaharchada, xohlagan ko'chada, xohlagan magazinda Villi Vonka nomi bilan ataladigan shirinliklar orasida bo'lishi mumkin. Oltin biletni topgan besh omadli bola fabrikaga kirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Barchangizga omad yor bo'lsin!" (Villi Vonkaning imzosi)

– Bu odam jinnimi? – to'ng'illadi Jozefina buvi.

– Aksincha, u judayam aqlli, – dedi Jo bobo.

– U afsungar! Endi nima bo'lishini bir tasavvur qiling! Butun olam Oltin biletlarni qidirishga tushadi. Hamma Vonka shirinliklarini sotib olib, g'oliblardan biri bo'lishga intiladi. Shirinliklar oldingidan ko'ra ko'proq sotiladi. Hayotingizning qolgan qismida shokolad va shirinliklarni bepul yeyishingiz mumkin. Bu qanday ajoyib-a!

– Ular yuk mashinalarida tashlab ketishsa kerak-a? – dedi Jorjina buvi.

– Bu haqda o'ylashning o'zi ham menga og'irlik qiladi, – dedi Jozefina buvi.

– Bo'lmagan gap! – baqirdi Jo bobo. – Hayotda hamma narsa bo'lishi mumkin, balki Charli olgan shirinlikning ichida Oltin bilet yaltirab turgan bo'lar.

– Bu albatta bo'lishi mumkin, bobo. Ammo siz bundan umid qilmang, – dedi Charli xafaroq ohangda. – Men axir yiliga bir marotaba shirinlik yeyman-ku!

– Sen hech narsani bilmaysan, qo‘zichog‘im. Senda imkoniyat bor. Kelasi hafta tug‘ilgan kuning-ku!

– Men bu orzuingiz amalga oshmasligidan qo‘rqaman, – dedi Jorj bobo. – Boshqa bolalar Oltin biletni topmoqchi bo‘lib, kuniga qurbilari yetguncha shokolad sotib olishadi. Bizning Charli esa yiliga faqat bitta. Umid yo‘q.

BIRINCHI IKKI G‘OLIB

Ertasi kuniyoq birinchi Oltin bilet topildi. Uni topgan bolaning ismi Avgust Glop. Janob Bakket olib kelgan kechqurungi gazetada uning rasmi ham bor edi. Rasmda to‘qqiz yoshlardagi nasos bilan shishirib qo‘yilgandek ulkan semizlikdagi bola ko‘rinardi. Uning tanasi semizligidan har bir qismi yumshoq bo‘g‘imlarga ajralgan, yuzi haybatli xamirdan qilingan qo‘ng‘iroqni eslatadi, ochofat qora mayiz ko‘zlari atrofga ochko‘zlarcha boqardi. Gazetada yozilishicha, Avgust Glop yashaydigan shaharchadagi odamlar xursandchilik bilan o‘zlarining qahramonlarini tabriklashardi. Derazalardan bayroqlar hilpirab turardi, ular bayram qilishib, qahramonlari sharafiga namoyish uyushtirishdi.

– Men Avgustning Oltin biletni topishiga ishon-gandim, – dedi onasi muxbirga. –U shunchalik ko‘p shirinlik yer ediki, birontasini topmasligi mumkin emas edi. Yeyish uning hobbisi, agar bilsangiz. U

hamma narsadan ham ko‘ra shokolad yeyishga qiziqadi. Ammo bu bo‘sh vaqtini turli qurollar otish va boshqa yomon narsalar bilan o‘tkazishdan ko‘ra yaxshiroq-ku! Nima bo‘lsayam hammasi vitamin-ku! Eng muhimi, u endi Vonkaning sehrlı fabrikasiga kira oladi. Biz undan faxrlanamiz!

– Qanday xunuk ayol, – dedi Jozefina buvi.

– Va qanday jirkanch bola, – qo‘shildi Jorjina buvi.

– Faqatgina to‘rtta bilet qoldi, – xo‘rsindi Jo bobo.

Hozir butun dunyo shirinliklarni sotib olishga jinnilarcha ishqiboz bo‘lgan. Hamma haliyam qimmatbaholigicha turgan biletlarni shiddatli qidirishda davom etmoqda edi. Katta yoshdagi ayollar ham o‘nlab shokolad magazinlariga kirib, o‘nlab shirinliklarni sotib olishar va oddiy qog‘ozlarni ko‘rib, xafa bo‘lib boshqa magazinga shoshilishardi.

